


# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


## Asosiy tarkib trln. so'm




## Dastlabki ma'lumotlar

Farg'ona viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **7 702,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **0,2 %** ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **780,5** mlrd. so'mni (**6,4 %** ga kamaydi). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **6 922,2** mlrd. so'mni (**1,1 %** ga o'sdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **430,2** mlrd. so'mni (**30,0 %** ga kamaydi) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, ulushlarda %



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm



# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

## UMUMIY MA'LUMOT

Farg'ona viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **7 702,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **100,2** % ni tashkil etdi.



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida barcha shahar va tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **89,9** % va yirik korxonalar hissasiga **10,1** % to'g'ri keldi.

## ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Farg'ona shahri **26,7** % ulush bilan **2 059,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Farg'ona sh.  
2 059,9

Quva  
391,9

Qo'shtepa  
378,4

Buvayda  
296,2

Bog'dod  
273,0

Uchko'prik  
270,1

Rishton  
191,9

Quvasoy  
191,6




Yozyovon  
183,0

So'x  
104,4

## ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni So'x **1,4** % ulush bilan **104,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

# YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, **6 922,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **1,1 %** ga ko'paygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **89,9 %** ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Qo'shtepa (**99,8 %**), Farg'ona (**99,5 %**), Furqat (**98,4 %**), Buvayda (**98,2 %**) tumanlarida yuqori bo'lgan.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-iyun oylariga viloyatning barcha shahar va tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Quvasoy sh (114,3 %) Farg'ona sh (108,0 %) va Beshariq (108,0 %), Uchko'prik (106,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>7 702,7</b>	<b>100,2</b>	<b>780,5</b>	<b>93,6</b>	<b>6 922,2</b>	<b>101,1</b>
<b>Shaharlar</b>						
Farg'ona	2059,9	108,0	459,6	92,9	1567,9	111,0
Qo'qon	1093,4	98,2	159,5	98,4	952,6	100,1
Quvasoy	191,6	114,3	27,4	5,2 m	162,3	99,9
Marg'ilon	711,5	91,8	26,1	66,6	721,6	98,0
<b>Tumanlar</b>						
Oltiariq	273,6	97,5	9,0	106,2	263,6	96,8
Qo'shtepa	378,4	100,7	0,8	122,3	380,2	101,4
Bag'dod	273,0	88,5	15,0	32,7	249,0	94,7
Buvayda	296,2	91,9	5,8	128,4	312,8	98,4
Beshariq	273,8	108,0	4,8	130,8	244,9	98,1
Quva	391,9	98,5	19,2	74,2	368,3	99,0
Uchko'prik	270,1	106,8	15,5	4,9 m	256,2	102,6
Rishton	191,9	85,4	7,6	77,6	189,2	88,0
So'x	104,4	96,5	0,8	97,8	105,0	97,8
Toshloq	196,8	96,8	11,7	96,5	186,4	97,5
O'zbekiston	230,4	98,4	5,7	114,7	225,5	98,4
Farg'ona	277,5	103,5	1,4	80,0	260,7	97,9
Dang'ara	181,2	99,9	4,4	103,4	173,5	98,0
Furqat	124,0	104,5	2,0	113,8	122,0	104,4
Yozyovon	183,0	95,7	4,3	74,3	180,4	97,3

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

## Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **6,4 %** ga kamaydi va **780,5** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **10,1 %** ulushiga to'g'ri keladi.



## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **6 922,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **1,1 %** ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **89,9 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qo'shtepa (**99,8 %**), Farg'ona (**99,5 %**), So'x (**99,2** va Furqat (**98,4 %**) tumanlarida yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **10,1 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Farg'ona (**22,3 %**), Qo'qon (**14,6 %**) va Quvasoy (**14,3 %**) shahrida kuzatildi.



## FARG'ONA VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020-yil yanvar-iyun oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 044,7** ming so'm (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan

**1,6 %** ga kamaydi) va Rishton (**83,9%**) hamda Bo'gdod (**86,6%**), Buvayda (**90,1%**) tumanlari va boshqa barcha shahar va tumanlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Farg'ona sh. (**7 102,9** ming so'm), Qo'qon (**4 309,7** ming so'm) va Marg'ilon (**3 014,7** ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keladi.



	Hajm, ming so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Farg'ona viloyat	2 044,7	98,4
<b>Shaharlar</b>		
Farg'ona	7102,9	106,2
Qo'qon	4309,7	96,6
Quvasoy	2046,8	112,3
Marg'ilon	3014,7	90,2
<b>Tumanlar</b>		
Oltiariq	1294,3	95,6
Qo'shtepa	1990,7	98,8
Bog'dod	1268,2	86,6
Buvayda	1300,9	90,1
Beshariq	1201,5	106,1
Quva	1519,1	96,8
Uchko'prik	1182,6	104,8
Rishton	951,4	83,9
So'x	1341,6	94,8
Toshloq	974,2	94,9
O'zbekiston	965,5	96,5
Farg'ona	1302,4	101,5
Dang'ara	1043,7	97,9
Furqat	1053,9	102,9
Yozyovon	1656,5	93,8

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari



Chorva (parranda) bozorlari

### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo

Shu jumladan:

Dehqon bozorlari

Chorva bozorlari

Farg'ona viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **430,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **30,0 %** ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **221,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **80,2 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **208,3** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **61,7 %**) tashkil etdi.

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Uyushmagan savdo

430,2 mlrd. so'm, 100,0 %


Dehqon bozorlari

221,9 mlrd. so'm,  
53,4%

Chorva bozorlari

208,3 mlrd. so'm,  
46,6 %

### Eng yuqori ulushga ega hududlar



Farg'ona

Byvayda

Beshariq

Bog'dod

**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-iyun oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **221,9** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **208,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
<b>Farg'ona viloyat</b>	<b>430,2</b>	<b>70,0</b>	<b>221,9</b>	<b>80,2</b>	<b>208,3</b>	<b>61,7</b>
<b>shaharlar</b>						
Farg'ona	59,7	84,8	45,9	112,6	12,5	43,0
Qo'qon	59,9	96,1	26,1	110,8	26,8	69,2
Quvasoy	11,2	48,2	3,9	42,9	5,7	40,4
Marg'ilon	63,9	92,0	35,6	110,8	20,9	56,0
<b>tumanlar</b>						
Oltiariq	10,2	52,5	7,7	70,7	1,9	22,3
Qo'shtepa	26,1	70,2	14,3	83,1	10,2	51,1
Bag'dod	42,2	95,8	11,2	95,6	25,6	79,1
Buvayda	26,8	76,4	20,7	92,9	5,1	39,8
Beshariq	39,0	75,7	12,0	67,2	21,6	63,9
Quva	20,9	71,6	13,2	77,6	5,8	47,7
Uchko'prik	4,8	30,8	1,4	26,0	2,1	19,8
Rishton	13,3	55,3	6,1	50,0	6,0	51,1
So'x	2,5	24,4	1,2	26,1	1,0	18,7
Toshloq	4,8	36,9	3,5	48,8	0,9	15,1
O'zbekiston	9,3	39,4	3,2	32,4	5,2	38,6
Farg'ona	24,2	64,1	8,6	66,1	12,3	50,1
Dang'ara	3,5	29,0	2,1	37,7	1,3	19,5
Furqat	-	-	-	-	-	-
Yozyovon	7,8	42,0	4,6	54,4	2,6	25,7

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



4,5 mlrd. so'm

Tuzlamalar



67,4 mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari



6,2 mlrd. so'm

Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalarni qo'shgan holda)

43,3 mlrd. so'm



Non va non mahsulotlari



8,3 mlrd. so'm

Sut va sut mahsulotlari

2,7 mlrd. so'm



Tuxum

71,8 mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh, loviya, no'xat, guruch va boshqalar)

3,5 mlrd. so'm



Chorva mollari va parrandalar uchun har xil yem-hashaklar

2,6 mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)

2020-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha shahar va tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **221,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**67,4** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

2,3 mlrd. so'm



Ziravorlar

9,3 mlrd. so'm



Tovuq go'shti

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI


2020-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha shahar va tumanlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **208,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **154,6** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **51,3** mlrd. so'mni, otlar **1,6** mlrd. so'mni, parrandalar **0,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:



**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,6 %** ni tashkil etib, **123,2 mlrd. so'mga** yetdi va 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **8,5 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **65,3 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>123,2</b>	<b>91,5</b>	<b>5,5</b>	<b>252,7</b>	<b>117,7</b>	<b>88,8</b>
<b>shaharlar</b>						
Farg'ona	53,4	108,1	3,9	191,7	49,5	104,5
Qo'qon	13,2	116,9	1,6	42,5 m	11,6	103,1
Quvasoy	3,1	101,0	-	-	3,1	101,0
Marg'ilon	11,6	101,8	-	-	11,6	101,8
<b>tumanlar</b>						
Oltiariq	2,8	83,9	-	-	2,8	83,9
Qo'shtepa	2,6	84,8	-	-	2,6	84,8
Bag'dod	2,5	65,9	-	-	2,5	65,9
Buvayda	3,0	61,5	-	-	3,0	61,5
Beshariq	2,1	55,5	-	-	2,1	55,5
Quva	3,1	65,5	-	-	3,1	65,5
Uchko'prik	4,7	72,5	0,1	42,9	4,6	73,1
Rishton	3,3	67,3	-	-	3,3	67,3
So'x	2,5	89,8	-	-	2,5	89,8
Toshloq	2,3	61,1	-	-	2,3	61,1
O'zbekiston	3,1	72,5	-	-	3,1	72,5
Farg'ona	4,0	73,4	-	-	4,0	73,4
Dang'ara	2,9	72,1	-	-	2,9	72,1
Furqat	1,2	59,9	-	-	1,2	59,9
Yozyovon	1,8	77,8	-	-	1,8	77,8

# ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

## Asosiy tarkib, foizda



Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Farg'ona viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 047,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **15,1 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **409,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **33,3 %** ga kamayish), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **2 637,6** mlrd. so'mni (**11,4 %** ga kamayish), shundan mikrofirmalar savdo tovar aylanmasi **1 910,1** mlrd. so'mni (**12,0 %** ga kamayish) va kichik korxonalar savdo tovar aylanmasi **727,5** mlrd. so'mni (**9,6 %** ga kamayish) tashkil etdi.


## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



## Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



## Eng yuqori ulushga ega hududlar




**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Qo'qon (**126,7 %**) shahrida Oltiariq (**6,4 m**) O'zbekiston tumanlarida (**123,8 %**) kuzatildi.




Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Qo'qon (**100,9 %**) shahrida va Rishton (**90,9 %**) So'x t (**90,7 %**) tumanlarida qayd etildi.

**Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
<b>Farg'ona viloyat</b>	<b>3 047,1</b>	<b>84,9</b>	<b>409,4</b>	<b>66,7</b>	<b>2637,6</b>	<b>88,6</b>
<b>shaharlar</b>						
Farg'ona	902,7	79,7	346,8	62,0	555,9	96,8
Qo'qon	676,5	100,9	57,4	126,7	619,2	99,1
Quvasoy	90,7	88,7	-	-	90,7	88,7
Marg'ilon	560,6	89,0	-	-	560,6	89,0
<b>tumanlar</b>						
Oltiariq	125,4	70,9	0,7	648,3	124,7	70,5
Qo'shtepa	7,9	78,0	-	-	7,9	78,0
Bag'dod	10,7	75,0	3,3	56,4	7,3	88,1
Buvayda	112,9	78,4	-	-	112,9	78,4
Beshariq	46,1	86,4	-	-	46,1	86,4
Quva	45,6	85,5	-	-	45,6	85,5
Uchko'prik	102,4	71,3	0,2	32,6	102,2	71,5
Rishton	12,4	90,9	0,2	74,7	12,2	91,3
So'x	1,9	90,7	0,1	60,0	1,8	92,2
Toshloq	98,5	90,5	0,3	22,2	98,2	91,3
O'zbekiston	59,6	88,3	0,1	123,8	59,5	88,2
Farg'ona	33,6	65,5	-	-	33,6	65,8
Dang'ara	114,4	76,7	0,2	46,2	114,2	76,8
Furqat	7,9	86,1	-	-	7,9	86,1
Yozyovon	37,1	66,3	0,1	50,1	37,0	66,3

# YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, **2 637,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **11,4** % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **86,6** % ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Marg'ilon (**100,0** %), Quvasoy (**100,0** %), shahrlarida va Qo'shtepa (**100,0** %), Beshariq (**100,0** %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Farg'ona (**61,6** %) shahriga to'g'ri keldi. i.